

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA NISBAT KATEGORIYASI. O‘ZBEK, ARAB VA INGLIZ TILLARIDA FE’L NISBATLARI VA ULARNING QO‘LLANILISHI

Raimberdiyeva Gulnora Husan qizi
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili)
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: M. Madayeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada fe’l nisbatlari kategoriyasi, ularning gapda qay tarzda ifodalanishi hamda fikr ifodasidagi ahamiyati to‘g‘risida so‘z boradi. Shuningdek, o‘zbek, arab hamda ingliz tillaridagi fe’l nisbatlari soni, ular bajaradigan vazifalar va ularning hosil bo‘lishida ishtirok etuvchi grammatik shakllar haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: fe’l nisbatlari, ega, kesim, subyekt, obyekt, nisbat shakllari, umumiy grammatik ma’no, aniq nisbat, o‘timli fe’l, to‘ldiruvchi, o‘timsiz fe’l, majhul nisbat, zamon shakllari, fe’l leksema.

Ish-harakatning subyekt (bajaruvchi) va obyekt (bajarilayotgan narsa)ga munosabati *fe’l nisbatlari* deyiladi. Bu munosabat maxsus shakllar orqali ifodalanadi. [9;69] Masalan, *Shoir she’r yozdi* gapida ega bevosita ish-harakatning bajaruvchisi bo‘lib, bajaruvchi va harakat munosabati nol shaklli aniq nisbat bilan ifodalangan; *O‘qituvchi bolaga kitobni o‘qitdi* gapida harakatning bevosita va bilvosita bajaruvchisi (*o‘qituvchi bilvosita, bola esa bevosita bajaruvchi*) farqlangan. *Dovul chalindi* gapida harakat bajaruvchisi noaniq, majhul. Demak, nisbati o‘zgarishi bilan fe’lning bajaruvchisida ham o‘zgarish yuz beradi. Nisbat kategoriyasi fe’lning bo‘sh subyekt valentligini to‘ldirib, muayyanlashtirib uni nutqqa moslaydi. [8;193]

Hozirgi o‘zbek tilida fe’l nisbatining beshta ko‘rinishi ajratiladi: [7;167]

| T/r | Nisbat nomi | Ta’rifi | Nisbat shakllari | Misol |
|-----|---------------|--|------------------|---------|
| 1. | Aniq nisbat | Bajaruvchisi aniq bo‘lgan harakat yoki holatni bildirgan fe’l shakli <u>aniq nisbat</u> deyiladi | - | yuvdi |
| 2. | O‘zlik nisbat | Bajaruvchining o‘zi ustida amalga oshadigan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe’l shakli <u>o‘zlik nisbat</u> deyiladi | -n, -l, -in, -il | yuvindi |

| | | | | |
|----|-----------------|---|--|------------|
| 3. | Majhul nisbat | Bajaruvchisi noma'lum bo'lgan harakat yoki holatni ifodalovchi fe'l shakli <u>majhul nisbat</u> deyiladi | -n, -l, -in, -il | yuvildi |
| 4. | Birgalik nisbat | Birdan ortiq bajaruvchi tomonidan birgalikda bajarilgan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe'l shakli <u>birgalik nisbat</u> deyiladi | -sh, -ish | yuvishdi |
| 5. | Orttirma nisbat | Bajaruvchining ta'siri bilan boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat yoki holatni bildiruvchi fe'l shakllari orttirma nisbat shakli deyiladi | -t, -dir (tir), -giz (-kiz, -qiz, -g'iz), -gaz (-kaz, -qaz), -ir, -ar, -iz, -sat | yuvintirdi |

Aniq nisbat. Aniq nisbatdagi fe'llar harakatning ma'lum shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi, ya'ni bu fe'llar ifodalagan harakat-holatning bajaruvchisi aniq bo'ladi. Aniq nisbatdagi fe'llar harakatning **ega** orqali ifodalangan shaxs tomonidan bajarilishini bildiradi. Aniq nisbatdagi fe'llarda maxsus nisbat qo'shimchasi bo'lmaydi: *o'qidi, kelyapti, bormoqchi*.

O'zlik nisbat. O'zlik nisbatdagi fe'llar ish-harakatning boshqa buyumga o'tmay, bajaruvchining o'zida qolganini anglatadi, ya'ni yuzaki qaraganda, harakat obyektini qatnashmaydi, uning vazifasi bajaruvchiga yuklanadi. O'zlik nisbatda ish-harakat bajaruvchining o'zi ustida amalga oshadi.

O'zlik nisbatdagi fe'llarda harakatni bajaruvchi shaxs bilan harakat tushgan obyekt birlashgan holda bo'ladi.

Bunday fe'llar asosan o'timli fe'llarning unli bilan tugagan negiziga *-n, -l*, undosh bilan tugagan negiziga *-in, -il* qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi (ayrim fe'llarda *-(i)sh* qo'shimchasi bilan yasaliş bor: *kerishdi, joylashdi*): *tarandi, sevindi, sudraldi* va h.k.

Jonlandi, otlandi, harakatlandi, quvondi, seskandi, faxrlandi, zavqlandi, odatlandi, afsuslandi fe'llari o'zlik nisbat emas, aniq nisbat hisoblanadi, chunki ular tarkibidagi *-n* qo'shimchasi ajratilmaydi.

Jon, odat, harakat, faxr, zavq so'zlari – ot turkumiga mansub. Bu so'zlarga *-la* shakli emas, *-lan* fe'l yasovchi qo'shimchasi qo'shiladi: *odatlandi, faxrlandi, zavqlandi* so'zlaridagi *-di* qo'shimchasi **zamon shakli** hisoblanadi. Fe'l nisbati qo'shimchasi esa yo'q. Bu fe'llar yuqorida ta'kidlanganidek, aniq nisbatdagi fe'llar hisoblanadi.

Yayra, uxla, qichqir, bor kabi fe'llardan o'zlik nisbat yasalmaydi. Chunki bu fe'llar **o'timsiz fe'llardir**. O'zlik nisbat faqat o'timli fe'llarga qo'shiladi va uni o'timsiz fe'lga aylantiradi: *kiydi* (nimani?) – *kiyindi* (nimani? so'rog'iga javob bo'lmaydi), *yuvdi* (nimani?) – *yuvindi* (kimni? yoki nimani? so'rog'iga javob bo'lmaydi).

O'zlik nisbat shakli har qanday o'timli fe'llardan yasalavermaydi: *o'qi, kes, sug'or, hayda, ek, min* kabi fe'llar o'zlik nisbat shaklini qabul qilmaydi. [7;169]

Majhul nisbat. Majhul nisbat *-(i)n* va *-(i)l* shakllari yordamida hosil qilinadi: *yuvildi, tozalandi, aytildi, gapirildi, olindi* kabi. Bu nisbatli fe'l "subyektsizlashadi", aniqrog'i, obyekt ustuvorlashib, ega vazifasiga o'tadi, mantiqiy obyekt grammatik ega maqomini oladi: *Bu yerda chetan bilan o'ralgan mol qo'rasi bor edi.* (P. Qodirov) *Boboxo'ja domla ishdan bo'shatildi.* (P. Tur.)

Majhul nisbat asosan o'timli (*o'ralgan, yig'ilgan, sochilgan, terilgan*), qisman o'timsiz (*bo'shatilgan, tushilgan, borilgan*) fe'ldan hosil qilinadi. O'timsiz fe'ldan yasalganda **egasiz gap** (shaxssiz gap) hosil bo'ladi: *Bu ko'cha bilan ikki-uch yuz odim yurilgach, qishloq guzariga yetiladi.* (H. Shar.) *Rasmi, yomon xotindan qochiladi, zamona shum bo'lsa, yaxshi xotindan ham qochar ekan kishi.* (A. Qahhor) Ba'zan majhul nisbatda qo'llanilishi lozim bo'lgan fe'l aniq nisbatda bo'lsa ham, majhul nisbat ma'nosi ifodalanadi: *Anchagina yurgach, o'ng tomonda paxsa uy ko'zga tashlanadi.* (S. Nur.) Bunda shakl va ma'no muvofiqligi yo'q. Shuning uchun nisbatni aniqlashda "Qaysi nisbat shakli yoki qaysi nisbat ma'nosi bor?" tarzidagi muqobil savoldan biri qo'yilishi kerak. Bir-biriga bog'langan kontakt holatdagi ikki fe'ldan ikkinchisigina majhul nisbatda bo'ladi: *Bu dori spirtida ivitilib, qiyom qilib ichiladi.* (N. Saf.) *Eshakka teskari mindirib sazoyi qilindi.* (M. Ismoilij) [8;196]

O'zlik shakli ham o'timli fe'l leksemadan yasaladi, lekin u majhul nisbat shaklidan keskin farq qiladi. Buni ayni bir fe'l leksemadan ushbu ikki shaklning yasalishida ochiq ko'rish mumkin:

Kirni opam sovun bilan yuvdi – Kir sovun bilan yuvildi;

Kirni opam sovun bilan yuvdi – Opam sovun bilan yuvindi.

Ko'rinadiki, o'zlik yasalishida bajaruvchi aniqligicha saqlanadi, majhullashmaydi; vositasiz to'ldiruvchi yo'qoladi, harakat bajaruvchining o'zida voqe bo'ladi, vositali to'ldiruvchi odatda o'zgarishsiz saqlanadi. Demak, o'zlik shakli yasalishida sintaktik qurilma tamoman boshqacha transformatsiya qilinadi.

Ayrim o'timli fe'llardan o'zlik shakli yasalganda vositasiz to'ldiruvchi yo'qolmaydi, balki vositali to'ldiruvchiga aylanadi: [6;162]

Yozuvchi asarlarini maqtadi – Yozuvchi asarlari bilan maqtandi;

Otam meni koyidi – Otam mendan koyindi.

Ba'zi o'timli fe'llardan o'zlik shakli yasalganda sintaktik qurilmada murakkab o'zgarish voqe bo'ladi:

Xatti-harakatim qizimni ezdi – Xatti-harakatimdan qizim ezildi.

Bu yerda ega o'zicha saqlanmaydi, sabab holiga aylanadi; vositasiz to'ldiruvchi tashlanmaydi, lekin vositali to'ldiruvchiga aylanmay, egaga aylanadi; qurilmadan o'zlik ma'nosi ifodalanadi. Ushbu transformatsiyalanish eganing o'zicha saqlanmagani bilan o'zlik shakli yasalishidan farqlanadi, vositasiz to'ldiruvchining egaga aylanishi bilan majhul nisbat yasalishiga o'xshaydi; lekin transformadan o'zlik ma'nosi ifodalanadi. [6;163]

Birgalik nisbat. Birgalik nisbat *–(i)sh* affiksi yordamida hosil qilinib, uning umumiy grammatik ma'nosi "*harakatni bajarishda bajaruvchining birgalashuvi*" dir.

Birgalik nisbati asos fe'l boshqaruviga oddiy vositali to'ldiruvchini ko'makchili vositali to'ldiruvchiga aylantirish darajasida o'zgarish berishi mumkin.

Birgalik nisbat shaklida "*birgalik yordamlashish*" va "*birgalik ko'plik*" oraliq grammatik ma'nosi farqlanadi. "*Birgalik-ko'plik*" ma'nosi uchun fe'llarning o'timli-o'timsizligi ahamiyatsiz: *Kattalar o'sha yerda. Arz qil, yordam berishadi, yo'l-yo'riq ko'rsatishadi.* (P. Tur.) "*Birgalik-yordamlashish*" ma'nosi voqelanishi uchun esa shakl o'timli fe'llarni tanlaydi: *Bola dadasiga yer haydashdi, ekin ekishdi.* (S. Nur.) [8;196]

Ba'zan ko'plik shakli ham nutqiy ortiqchalik sifatida birgalik nisbat shakli ustiga "qavatlanadi": *Sharofat xolaning so'zlariga zavqlanib kulishdilar.* (N. Saf) *Ona-bola uzoq yig'lashdilar, yoshlari bitguncha bo'zlashdilar.* (A. Qodiriy) [8;197]

Orttirma nisbat. Orttirma nisbatdagi fe'llar ish-harakatning bajaruvchi ta'sirida boshqa biror shaxs yoki predmet vositasida bajarilganini bildiradi: *yozdirdi, o'qitdi.* Orttirma nisbatdagi bajaruvchi ish-harakatni o'zi bajarsa ham, bu harakat o'zining ustida bo'lmay, balki boshqa predmetga ko'chadi: *Onasi chaqaloqni yuvintirdi. Otasini hovlining chekkasidagi zax uyga ko'chirdi.* [7;170]

Orttirma nisbat qo'shimchalari:

-*t* qo'shimchasi unli tovush bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi: *to'qit, ishlat;*

-*dir* jarangli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi (*keltir* bundan mustasno): *yozdir;*

-*tir* jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi: *ektir;*

-*ir, -ar, -iz* qo'shimchalari undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi: *shoshir, chiqar, oqiz;*

-*giz, -g'iz* qo'shimchalari jarangli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi: *yurgiz, turg'iz;*

-*kiz, -qiz* qo'shimchalari esa jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi: *yutqiz, ketkiz;*

-*kaz, -qaz, -qiz, -g'az* qo'shimchalari: *ketkaz, o'tqaz;*

-*sat* qo'shimchasi: *ko'rsat.*

Ayrim fe'llar orttirma nisbat shaklida yangi ma'no ifodalaydigan bo'lib qoladi va shuning uchun ularni aniq nisbatda qo'llab bo'lmaydi: *erkalamoq – erkalatmoq* (ikkala shaklda ham orttirma nisbat ma'nosi ifodalanyapti).

Ba'zan fe'l asosiga orttirma nisbat hosil qiluvchi birdan ortiq qo'shimchalar qo'shilishi mumkin. Masalan, *o'qit- o'qittir, yozdir- yozdirtir*. Bunday holatda orttirma nisbat ma'nosi **kuchayadi**.

Birdan ortiq nisbat qo'shimchalarini olgan fe'llarning qaysi nisbatdaligini aniqlash uchun oxirgi nisbat qo'shimchasiga qaraladi: *yuvintirdi – orttirma nisbat; yuvintirildi – majhul nisbat; yuvintirishdi – birgalik nisbat*.

Surishtirdi, uzatdi, solishtirdi so'zlari aniq nisbat shaklidagi fe'llardir. Bu so'zlarning asosiga e'tibor bering: *surishtir, uzat, solishtir*. Ushbu so'zlarda nisbat qo'shimchasi yo'q. [7;171]

Ba'zan bir nisbat ma'nosi o'rnida boshqa nisbat shakllaridan foydalaniladi. Xususan, bosh nisbat ma'nosida birgalik nisbat shakllari ishlatilishi mumkin. Masalan, *keldi – kelishdi, kelyapti – kelishyapti*. Shuningdek, bosh nisbat ma'nosida majhul nisbat shakllaridan foydalaniladi: *qildim o'rniga qilindi, bajardim o'rniga bajarildi, kiring o'rniga kirilsin* kabi. Bunday holat ma'lum uslub – emotsional ma'no talabi bilan ro'y beradi. Ko'pincha keyingi holat **hurmat, kamtarlik** ma'nolarini ifodalaydi. [4;351]

Arab tilida fe'llarning aniq va majhul darajalari (nisbatlari) farqlanadi. Arab sintaktikasida fe'l kesimli gapning egasi الفاعل deb yuritilishini hisobga olgan ravishda aniq daraja (nisbat) fe'li الفعل المعلوم فاعله deb ataladi. Arab tilida ham aniq daraja fe'li o'zbek tilidagi singari sodir bo'lgan ish-harakatning bajaruvchisi ma'lum bo'lgan vaqtda qo'llaniladi. Masalan:

ذهبت زينب إلى المكتبة – *Zaynab kutubxonaga bordi;*

كشف الطبيب على المريض – *Doktor bemorni ko'rikdan o'tkazdi;*

أدرس الآن اللغة العربية – *Ayni vaqtda arab tilini o'rganyapman.*

Ish-harakat bajaruvchisi noma'lum bo'lgan yoxud vaziyat taqozosi bilan uni tilga olish lozim ko'rilmasa, fe'ning majhul darajasi (nisbati) ishlatiladi. Mazkur grammatik shakl arab tilida الفعل المجهول فاعله tarzida yuritiladi. Masalan:

Kutubxonaga borildi;

Bemor ko'rikdan o'tkazildi;

Nonushta qilindi kabi.

O'tgan zamon fe'llarining majhul daraja shakli uch undoshli fe'llarning ikkinchi o'zak undoshi, to'rt undoshli fe'llarning esa uchinchi o'zak undoshi kasra harakatini olishi, undan oldingi unlilar “u”ga aylanishi bilan aniq daraja shaklidan farq qiladi. Masalan: [1;151]

| | |
|----------------------|------------------------|
| <i>Aniq darajada</i> | <i>Majhul darajada</i> |
|----------------------|------------------------|

| | |
|---------------------------------|-----------------------------------|
| كُتِبَ – yozdi | كُتِبَ – yozildi |
| عَلَّمَ – o'rgatdi | عُلِّمَ – o'rgatildi |
| أُغْلِنَ – e'lon qildi | أُغْلِنَ – e'lon qilindi |
| نَاضَلَ – kurashdi | نُوضِلَ – kurashildi |
| اِكْتَسَبَ – ishlab topmoq | أُكْتُسِبَ – ishlab topilmoq |
| اسْتَفْهَمَ – so'ralmoq | أُسْتُفْهِمَ – so'ralmoq |
| تُرْجِمَ – tarjima qilmoq | تُرْجِمَ – tarjima qilinmoq |
| زُلْزِلَ – titratmoq, silkitmoq | زُلْزِلَ – titratildi, silkitildi |

Hozirgi-kelasi zamon fe'llarining majhul daraja shakli aniq daraja shaklidan old qo'shimcha damma bilan harakatlanishi va uch undoshli fe'llarning uchinchi o'zak undoshi, to'rt undoshli fe'llarning esa uchinchi undoshining harakati fatha bo'lishi bilan farq qiladi. [abd152] Misollar:

| Aniq daraja | Majhul daraja |
|--------------------------------|----------------------------------|
| يَكْتُبُ – yozadi | يُكْتُبُ – yoziladi |
| تَضْرِبُ – urasan | تُضْرَبُ – urilasan |
| تُعَلِّمِينَ – o'qitasan | تُعَلِّمِينَ – o'qitilasan |
| نُكْرِمُ – hurmat qilamiz | نُكْرِمُ – hurmat qilinamiz |
| تَسْتَقْبِلُونَ – kutib olasiz | تُسْتَقْبَلُونَ – kutib olinasiz |
| يُتْرَجِمُ – tarjima qiladi | يُتْرَجِمُ – tarjima qilinadi |
| يُزْلَزِلُ – silkitadi | يُزْلَزِلُ – silkitiladi |

Agar gapning kesimi aniq darajadagi o'timli fe'l bilan ifodalangan bo'lib, gapda uning vositasiz to'ldiruvchisi ham ishtirok etgan bo'lsa va ayni gap fe'l-kesimi majhul darajaga o'zgartirilsa, gapning asl egasi tushib qolib, vositasiz to'ldiruvchi uning vazifasiga o'tadi. Arab tilida bu kabi grammatik ega نائب الفاعل deb ataladi:

سَمِعَ يوسوف الحوار – Yusuf suhbatni eshitdi (aniq nisbat);

سُمِعَ الحوار – Suhbat eshitildi (majhul nisbat);

لعب الطلاب كرة القدم – Talaba yigitlar futbol o'ynashdi (aniq nisbat);

لُعِبَ كرة القدم – Futbol o'ynaldi (majhul nisbat);

ضرب الاخوة الولد الصغير – Akalar kichik bolakayni do'pposlashdi (aniq nisbat);

ضُرِبَ الولد الصغير – Kichik bolakay do'pposlandi (majhul nisbat).

Aniq daraja fe'li o'timsiz bo'lib uning vositasiz to'ldiruvchisi yo'q bo'lsa, majhul darajada gapning egasi bo'lmaydi. Bunday gaplarni o'zbek tilshunosligida **“shaxssiz gap”** yoki **“shaxsi topilmaydigan gap”** deb ataladi. Fe'l-kesim bunday gapda III shaxs birlik muzakkar shaklida bo'ladi.

نذهب غدا إلى سمرقند – Ertaga Samarqandga boramiz;

يُذْهَبُ غدا إلى سمرقند – Ertaga Samarqandga boriladi;

سافرنا إلى طشقند بالسيارة – Toshkentga mashinada safar qildik;

سوف نسير إلى طشقند بالسيارة – Toshkentga mashinada safar qilindi;

شرح المعلم الموضوع الصعب – O'qituvchi qiyin mavzuni tushuntirdi;

شرح الموضوع الصعب – Qiyin mavzu tushuntirildi.

“*Maktab quruvchilar tomonidan qurildi*” singari ish-harakat bajaruvchisi gapda ega emas, balki vositali to'ldiruvchi vazifasini bajarib kelgan gaplar arab tilida ishlatilmaydi.

Ingliz tili grammatikasida ham arab tiliga monand ravishda aniq va majhul nisbat shakllari farqlanadi va ular **The Active Voice** hamda **The Passive Voice** deb yuritiladi.

1. Agar gapning egasi gapdagi ish-harakatning bajaruvchisi bo'lsa, fe'l **oddiy nisbatda (The Active Voice)** ishlatiladi:

The sun attracts the planets - Quyosh sayyoralarni tortib turadi.

Pushkin wrote “Poltava” in 1828 - Pushkin “Poltava” she'rini 1828-yilda yozgan.

2. Agar gapning egasi ish-harakat ta'siri ostida bo'lsa fe'l **majhul nisbatda (The Passive Voice)** ishlatiladi:

The planets are attracted by the sun - Sayyoralar quyosh tomonidan tortiladi.

“Poltava” was written by Pushkin in 1828 – “Poltava” 1828-yilda Pushkin tomonidan yozilgan.

3. O'timli fe'llar ham oddiy nisbatda, ham majhul nisbatda ishlatiladi. O'timsiz fe'llar faqat oddiy nisbatda ishlatiladi.

MAJHUL NISBAT ZAMONLARINING YASALISHI

1. Majhul nisbatning zamonlari **to be** yordamchi fe'lini kerakli zamonda qo'yish bilan yasaladi. Asosiy fe'ldan yasalgan o'tgan zamon sifatdoshi esa hamma zamonlarda o'zgarmay qoladi: [2;106]

Be + P.P.

| | Simple | Continuous | Perfect |
|---------|----------------------|----------------------------|----------------------------|
| Present | I am invited | I am being invited | I have been invited |
| Past | I was invited | I was being invited | I had been invited |

| | | | |
|--------------------|----------------------------|---|-----------------------------------|
| Future | I shall be invited | - | I shall have been invited |
| Future in the Past | I should be invited | - | I should have been invited |

2. Majhul nisbatning bo‘lishsiz shakli birinchi yordamchi fe‘ldan keyin **not** inkor yuklamasini qo‘yish bilan yasaladi: ***I am not invited, I have not been invited, I shall not have been invited.***

3. Majhul nisbatning so‘roq shakli birinchi yordamchi fe‘lni eganing oldiga o‘tkazish bilan yasaladi: ***Am I invited? Have I been invited? Shall I have been invited?***

4. Oddiy nisbatdagi ega majhul nisbatda **by** predlogli to‘ldiruvchi bo‘lib keladi va u ba‘zan tushib qolishi mumkin:

The bridge was built in 1975 - Ko‘prik 1975-yilda qurilgan.

5. Majhul nisbatda ba‘zan ish-harakatni bajarish qurolini ko‘rsatish uchun **with** predlogi bilan kelgan to‘ldiruvchi ishlatilishi mumkin:

The paper was cut with a knife - Qog‘oz pichoq bilan kesildi. [2;107]

Aksariyat hollarda “be” o‘rniga “get”, “being” o‘rniga “getting”, “been” o‘rniga “got” ishlatilishi mumkin. Majhul nisbatda 10 ta zamon shakli mavjud bo‘lib, ularning signal so‘zlari aniq nisbatdagilar bilan bir xil bo‘ladi, qoidalari va zamon moslashuviga to‘la amal qiladi.

“**Get**” fe‘li asosan biror kishi yoki narsaga kutilmaganda to‘satdan biror hodisa sodir bolishini ifodalashda (asosan norasmiy holatlarda va majhul nisbatli gaplarda) “**be**” fe‘lining o‘rnida ishlatiladi. Masalan: *There was a fight at the party but nobody got hurt (...was hurt). If you don’t stop talking about her, she will get angry (...be angry). The dog got run over by a car (...was run over...).*

“**Get**” majhul nisbatda asosan, harakat fe‘llari bilan ishlatiladi. Holat fe‘llari bilan “**get**” emas, balki “**be**” fe‘lining o‘zi qo‘llaniladi. Masalan: *Their car got stolen in front of their house last night (...was stolen...).* *Jerry got fired because he was always late for work (...was fired...).* ~~*Nothing gets known about the thief. Nothing is known about the thief.*~~

“**Get**” fe‘lidan keyin o‘zlik olmoshlarining ishlatilishi harakat bajaruvchisining o‘zi sodir bo‘lgan voqea-hodisaga taqozo etilgani yoki unga mas‘ul ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, *Nick got injured while playing football* (Ko‘ngilsiz voqea, tasodif, Nickning aybi yo‘q) – *Nick got himself injured while trying bike stunts* (Qisman Nickning o‘z aybi bilan).

“**Get**” fe‘li bilan qo‘llaniluvchi ba‘zi qotib qolgan iboralar: [3;46]

| | | | |
|-----------------------------|-------------------------|--------------------------------|---------------------------------|
| Get dressed (kiyinmoq) | Get washed (yuvinoq) | Get engaged (unashtirilmoq) | Get married (turmush qurmoq) |
| Get divorced (ajrashmoq) | Get lost (adashmoq) | Get mixed up (chalkashmoq) | Get started (boshlamoq) |

Present Perfect Continuous, Past Perfect Continuous, Future Continuous va Future Perfect Continuous zamonlari majhul nisbatda qo'llansa ... **be being** ... yoki ... **been being** ... tarzida jumla qurilishi lozim bo'ladi. Xuddi shu qolipdan qochish maqsadida, odatda, bu zamonlar majhul nisbatda ishlatilmaydi. Aniq nisbat afzal ko'riladi.

Avoid: The house will be being cleaned at this time tomorrow - She will be cleaning the house at this time tomorrow.

Avoid: My shoes looked awful, because they had been being worn for more than three years - My shoes looked awful, because I had been wearing them for more than three years. [5;164]

Xulosa qilib aytganda, nisbat shakllari fe'l so'z turkumi doirasidagi eng ahamiyatli va keng qo'llaniluvchi grammatik kategoriyalarning biri sifatida dunyo tillarining aksariyatida mavjud. O'zbek tilida ularning soni beshtani tashkil qilsa, arab hamda ingliz tilshunosligida faqat ikkita nisbat shakli farqlanadi. Biroq shunday bo'lishiga qaramay, har ikkala tilda ham o'zbek tilidagi o'zlik, birgalik, ortirma nisbatlari ma'nosini anglatuvchi boshqa shakllar mavjud. Xususan, ingliz tilida ular asosan yordamchi fe'llar ta'sirida namoyon bo'lsa, arab tilshunosligida fe'ning ayrim hosila boblari ifodalovchi ma'nolarda o'z aksini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdujabborov A. Arab tili. -Toshkent: Tafakkur, 2020.
2. G'apponov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. -Toshkent: Turon- Iqbol, 2010.
3. Hafizov S., Abdullayev O. Ingliz tili grammatikasi. -Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.
4. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning I, II, III bosqich talabalari uchun darslik. -Toshkent: Ilm ziyo, 2013.
5. Rahimjonov I., Rahmatullayev A., Jumaboyev D. C1 plus grammar. -Toshkent: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2023.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: Universitet, 2006.
7. Rasulova N. Ona tilidan ma'ruzalar. -Toshkent: Nurafshon ziyo yog'dusi, 2018.
8. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent, 2009.
9. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2005.